

YOSHLARNI SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITDA TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS VAZIFALARI

Boyanbaeva Sholpanay Baxitbaevna

Chimboy tumani 25-maktab amaliyotchi psixolog

Eraliyeva Saragul Xojabaevna

Chimboy tumani 19-maktab amaliyotchi psixolog

Eshmuratova Amina Togizbaevna

Chimboy tumani 41-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA: *Bizga ma'lumki, har qanday odam boshqa odamdan o'zining individual-psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bundan ma'lum bir odamga xos bo'lgan xislatlar nazarda tutiladi. Psixologiyada xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida nomoyon bo'ladigan, tipik sharoitlarida ko'rinadigan va bu sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual psixik xususiyat yig'indisi tushuniladi.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, nutq madaniyati, sog'lom muhit, innovatsiya, pedagogik mahorat, tarbiya, korreksiya, ruhiy buzilish.*

KIRISH

Yoshlarning psixologik tarbiyasi ularning shaxsiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy hayotga moslashuvi jarayonida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada olib borilgan nazariy tahlillar va amaliy tadqiqotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, psixologik tarbiya jarayoni bolaning ruhiy sog'lomligi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Birinchidan, bola go'daklik davridan boshlab emotsional qo'llab-quvvatlov, mehr va tushunishga muhtoj bo'ladi. Bu ehtiyojlar qondirilmaganda bolada psixologik inqirozlar, shaxsiy muvozanatsizlik va o'ziga ishonchsizlik holatlari yuzaga keladi. Piage va Vygotskiy kabi mashhur psixologlarning

asarlari bola tafakkuri, o'zini anglash jarayoni va ijtimoiy o'zaro ta'sirlar asosida shakllanishi haqida chuqur ilmiy dalillar keltirilgan. Tadqiqotimizda ham ana shu nazariyalar amaliyotda o'z isbotini topdi. Ikkinchidan, oiladagi muhitning bolaning psixik rivojlanishiga ta'siri beqiyosdir.

Tadqiqotda mehrga asoslangan oilalarda ulg'aygan bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgani, befarq va jazoga asoslangan muhitda esa sezilarli darajada past bo'lgani bu fikrni tasdiqlaydi. Demak, bolaga berilayotgan mehr, e'tibor va ishonch – bu oddiy muomala emas, balki uning ruhiyatiga, kelajakdagi shaxsiy holatiga qaratilgan muhim investitsiyadir. Otaonalar va tarbiyachilar o'z farzandlari yoki tarbiyalanuvchilariga nafaqat jismonan, balki hissiy jihatdan ham yaqin bo'lishlari zarur.

Uchinchidan, tarbiyachilar va pedagoglarning psixologik savodxonligi ham muhim rol o'ynaydi. Emotsional qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishga intilayotgan tarbiyachilar bilan ishlovchi bolalarda yuqori psixologik va ijtimoiy moslashuv darajalari kuzatildi. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik yondashuvni kuchaytirish, tarbiyachilarga doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish zaruratini bildiradi.

To'rtinchidan, bolaning psixologik rivojlanishi bir necha bosqichlarda o'tadi va har bir bosqich o'ziga xos tarzda muhimdir. Ayniqsa, senzitiv davrlar — bolaning tashqi ta'sirlarga nisbatan eng sezgir davrlari bo'lib, bu bosqichlarda berilgan noto'g'ri yoki befarq munosabat bolaning butun umriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun bola tarbiyasida xatoliklar qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Beshinchidan, har bir bola o'ziga xosdir va uni umumiy me'yorga solib bo'lmaydi. Shuning uchun psixologik tarbiya individual yondashuvni talab etadi. Har bir bolaning ehtiyoji, xulq-atvori, ijtimoiy holati va hissiy tajribasi o'rganilishi, unga mos ravishda tarbiya strategiyasi tanlanishi zarur. Bu yondashuv aynan Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bola yordam bilan o'z imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga,

hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan.

Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "alAdab al-mufrad hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofiliyn" asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.

Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta'kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga e'tibor qarating;
- odamlar xursandchiligini baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, molmulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling;

- farzandingizga o'zgalar bilan muomala chog'ida boshqalarni g'iybat qilish, o'zgalarni mensimaslik, obro'si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko'rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

- yoshi ulug' kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko'ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e'tibor bering.

Mamlakatimizda sodir bo'layotgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarning xalq milliy ruhiyatining negizi bo'lmish oilaviy munosabatlarda aks etishini tadqiq etish muhim masaladir. Oilaviy munosabatlar tizimi juda murakkab va ancha teran mazmunga ega bo'lib, o'z ichiga er-xotin o'rtasidagi, ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini oladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratishdir.

Maktab ostonasiga oyoq qo'yish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg'ubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba'zi burchlarni, vaholanki, uz shaxsi uchun zarur bo'lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o'tadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko'paygan bo'ladi. Ya'ni u o'z obro'sini endi nafaqat oila a'zolari o'rtasida, aksincha, jamiyat o'rtasida oila obro'sini o'z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi. Ruhiy muhiti sog'lom oila a'zosi bo'lgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli bo'lmasin bola uchun jiddiy qiynchiliklar tug'dirmaydi. Chunki maktabda o'qituvchi hamma bolalarga bir ko'z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan alohida erkatoyga qarash qilmasdan, maktab uning o'zi uchun kerak bo'lgan burch, sifatida qaragan ma'qul. Chunki, mana shunday qaralgandagina bola uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burch sifatida qarashga o'rganib boradi.

Har bir inson yoshligidanoq kamchiligu yutuqlari, o'z imkoniyatlari haqida oz bo'lsa-da tasavvurga ega bo'la boshlaydi. Yoshligidanoq bolalar fe'l-atvori

haqida oldin ota-onalari, keyin esa atrofdagilari o'z munosabatini bildirib boshlaydi. Tashqi ta'sir natijasi o'laroq, har bir insonda o'ziga-o'zi baho berish qobiliyati shakllana boshlaydi. Qaysidir bola o'ziga juda yuqori baho bersa, yana qaysidir bola o'zi haqida salbiy fikrga ega bo'ladi. O'ziga yuqori baho bergan bolalar ham past baho beradigan bolalar ham ta'lim dargohida bilim olishga qiynaladi. Yuqori baho bergan bolalarning qiynalishini sababi shundaki, uning o'zi haqidagi fikri real imkoniyatlaridan ko'ra ilgari ketgan bo'ladi. Bunday bolalar atrofdagilaridan norozi bo'lishadi, ularning o'zi haqidagi fikrini ijobiy tomonga o'zgartirgandan so'nggina u bilim olishga qiynalmaydi. Ularning o'zi haqidagi fikrlarini o'zgartirish ham qiyin kichadi. Buning uchun o'zgalarning yutig'ini ko'rib, u bilan o'z imkoniyatlarini taqqoslash, atrofdagilarining unga nisbatan to'g'ri muomila qila olishi muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish darkor.

O'zi haqida salbiy fikriga ega bo'lgan bolalarga ham oson emas. Ularning boshqalar bilan muomilaga kirishlari, yangi tanishlar orttirishlari qiyin kichadi shu bilan birgalikda ta'lim olishlari ham qiyin kechadi. Ularni doim bir ishni boshlashdan oldin "men to'g'ri yo'l tutyapmanmi" kabi shubhali savollar qiynaydi. Bunday shubha gumonlardan qutilish uchun bolalarga avvalambor o'zlariga chetdan nazar solish kerakligini tushuntirish kerak. Ularga hech kimdan kam emasligini shu bilan barobarda boshqalardan ustun jihati mavjudligini tushuntirish va shu jihatni his qila bilishni o'rgatish kerak. Ana shundagina bola hayotda o'z o'rnini topa oladi.

XULOSA

Bolalarning qiziqishlariga qarab ularni o'z xayotida o'zi xohlagan soha mutaxasislari bo'lishlari uchun ularga to'g'ri yo'nalish berish kerak. Ba'zi bir bolalar judayam qobiliyatli bo'lishadi, ammo judayam qaysar bo'lishadi. Ular bilan ko'proq shug'ullanish kerak. Ana shundagina ular ham o'z hayotida o'z o'rniga ega bo'lishadi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, sog'lom va barqaror jamiyatni qurish, unda faol, ijodkor, hurfikr va baxtli insonlarni tarbiyalash psixologik tarbiyani to'g'ri tashkil etish bilan bevosita bog'liq.

Bolaning ichki dunyosini eshitgan, tushungan va qo'llab-quvvatlagan har bir otana va pedagog kelajak avlodning barkamol shakllanishiga xizmat qilgan bo'ladi. Ushbu maqolada keltirilgan ilmiy-nazariy qarashlar, amaliy natijalar va takliflar nafaqat tadqiqotchilar, balki otanonalar, psixologlar, tarbiyachilar va ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun ham qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allamuratov S. I., Uraimov S. R. MOTOR TRAINING OF STUDENT YOUTH IN THE PROCESS OF TRAINING IN SPECIALIZED MILITARY-TECHNICAL LYCEUMS IN CONDITIONS OF HYPERTHERMIA //Herald pedagogiki. Nauka i Praktika. – 2021. – T. 1. – №. 1.
2. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 29-31.
3. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT
4. INTERNET MATERIALLARI